

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023-yil yanvar-iyun)

## 1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda **469 619,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan **5,6 %** ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi 5,6 % ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,4 f.p.ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,8 % ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,7 f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi 4,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 6,4 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 7,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 11,5 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,9 % ga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 2,6 f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,9 % ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi.

## 2. Sanoat mahsuloti

2023-yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan **293,6** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,6** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,0 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,0 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,5 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 6,3 %ga, qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 9,9 %ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 3,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatida (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4%), shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (105,4 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik

hajm indeksi 82,1 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 98,7 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga metall rudalari qazib olish sanoatida (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (93,7 %) hamda ko'mir va qo'ng'ir ko'mir (97,1 %) qazib olish hajmining kamayishiga sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,0 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi 28,9 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **39,6 %**ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **60,4 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 107,7 % ni tashkil etdi.

### **3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **154 467,4** mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan **103,8%** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 149 662,7 mlrd. so'mni (103,8%), o'rmon xo'jaligida – 3 828,1 mlrd. so'mni (101,4%), baliqchilik xo'jaligida – 976,6 mlrd. so'mni (110,9%) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (3,8%) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – 3,8 % ga, sutning – 2,9 % ga, tuxumning – 4,5 % ga, donning – 7,3 % ga, kartoshkaning – 3,3 % ga, polizning – 5,8 % ga, meva va rezavorlarning – 5,0 % ga va ovlangan baliqlarning – 11,6 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,5% - dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 21,0% - fermer xo'jaliklari, 4,5% - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### **4. Inflyatsiya darajasi**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **3,5 %** ni tashkil etdi.

Joriy yilning I yarim yilligida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 4,1 % ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 1,72 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda 3,1 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning 1,06 f.d. o'sish sur'atini, xizmatlar esa 2,9 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 0,67 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma



ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 49,9 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 30,7 % i va xizmatlar hissasiga 19,4 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limidagi narx o'zgarishlarining hissasiga 43,8 % ulush to'g'ri keldi. Ushbu bo'limda narxlarning 3,8 % ga oshishi hisobiga joriy yilning I yarim yilligidagi yig'ma INI 1,51 f.d. yuqoriladi. Transport (3,2 %) va sog'liqni saqlash (5,7 %) sohalarida, kiyimlar va poyabzallar (2,1 %), uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy-joylarga kundalik xizmat ko'rsatishda (3,5 %) narxlarning oshishi hisobiga yig'ma INI 1,13 f.d. yuqoriladi.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar narxlarining 4,2 % ga (ta'siri - 0,18 f.d.), yog'lar va moylarning 6,1 % ga (-0,17 f.d.) hamda axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarning 0,5 % ga (-0,02 f.d.) arzonlashishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi.

### **5. Asosiy kapitalga investitsiyalar**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **139 104,6** mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,9** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 30,0 %ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 4,9 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 10,0 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 37,5 %, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 17,1 %, aholi mablag'lari – 10,2 %, Respublika budjeti – 6,5 %, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – 0,3 %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi 0,6 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2022-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 136,5%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 121,3%, korxonalar mablag'lari – 115,8%, aholi mablag'lari – 108,7%, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 106,9%, Respublika budjeti – 103,6%.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari: Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – 70,9%, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – 79,8%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 98,5%.

### **6. Qurilish ishlari**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida **68139,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,8%**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 15608,0 mlrd. so'm yoki 22,9% yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 40677,7 mlrd. so'm yoki 59,7 %,

norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 11853,5 mlrd.so'm yoki 17,4% bajarildi.

### **7. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **133 174,7** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,9** %ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 16,8 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,7 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes sub'ektlarining chakana tovar aylanmasi 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,1 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,3 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,3 % ulush bilan 13 659,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### **8. Tashqi savdo aylanmasi**

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **29 170,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **4 744,2** mln. AQSh dollariga yoki **19,4** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **12 140,0** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,0** % ga oshdi. Import **17 030,5** mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,0** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: oziq-ovqat maxsulotlari va tirik xayvonlar eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan +33,4 % (218,1 mln AQSh doll.)ga, mashina va transport asbob-uskunalari +58,8 % (222,0 mln. AQSh doll.)ga, tamaki va ichimliklar – +36,1 % (17,3 mln AQSh doll) hamda turli xil tayyor buyumlar +24,7 % (123,6 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalari – +29,8 % (1 475,4 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – +72,9 % (539,5 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – +10,2 % (210,3 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

### **9. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **212,8** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,3** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining 22,7 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 5,1 punkt), transport xizmatlari 8,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,9 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 22,9 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), savdo xizmatlari 7,0 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,7 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 19,5 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,8 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (50,0 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 %), transport xizmatlari (49,1 trln.so'm, 108,6 %) va savdo xizmatlari (50,0 trln.so'm, 107,0 %)ga to'g'ri keladi.

### **10. Korxonalar va tashkilotlar soni**

2023-yil 1-iyul holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **477,7 mingtani** (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 411,1 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (94 322 ta), Toshkent (44 876 ta), Samarqand (43 209 ta), Farg'ona (42 057 ta), Qashqadaryo (34 732 ta), Buxoro (30 572 ta) va Andijon (29 498 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 155 132 ta, sanoat sohasida – 69 628 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 38 632 ta, qurilish sohasida – 34 102 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 559 tani tashkil etadi.

2023-yil yanvar-iyun oyida respublikada 47,7 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 46,3 mingtani tashkil etdi.

2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12 742 tani tashkil etdi. Ulardan 4 856 tasi qo'shma korxonalar va 7 886 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.